

**“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyati**  
**yagona aksiyadorining**  
**5-son qarori**

2023-yil 26-aprel  
soat 10:00

Toshkent shahri  
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi hamda jamiyat Ustaviga muvofiq yakka tartibda qabul qilindi va 2023-yilning 26-aprel kuni yozma shaklda rasmiylashtirildi.

**KUN TARTIBI:**

**“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisod va moliya bo‘yicha o‘rinbosari R. Turakulovning arizasini ko‘rib chiqish.**

**Kun tartibidagi masala yuzasidan:**

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisod va moliya bo‘yicha o‘rinbosari Turakulov Rustam Odilovichni o‘z xohishiga ko‘ra egallab turgan lavozimidan ozod qilish to‘g‘risidagi arizasi o‘qib eshittirildi (*R. Turakulovning arizasi ilova qilinadi*).

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasiga asosan jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiradi.

Arizani qanoatlantirish taklifi kiritildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisod va moliya bo‘yicha o‘rinbosari Turakulov Rustam Odilovich o‘z arizasiga binoan 2023-yil 26-aprel kuni egallab turgan lavozimidan ozod qilinsin va u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinsin.

2. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisod va moliya bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga belgilangan tartibda tanlov e‘lon qilinsin.

3. Jamiyat boshqaruvi raisi v.b. (Usarov):

- tanlov natijalari bo‘yicha kelib tushgan takliflarni o‘rnatilgan tartibda jamiyat yagona aksiyadoriga kiritinsin;

- mazkur qaror kuchga kirgan kundan boshlab Qimmatli qog‘ozlar bozorida axborot taqdim etish va e‘lon qilish qoidalari talablaridan kelib chiqib, tegishli ma‘lumot (muhim fakt)larni o‘rnatilgan tartibda oshkor qilinishini ta‘minlasin.

**Jamiyatning yagona aksiyadori**  
**“O‘zkimyosanoat” AJ nomidan**  
**boshqaruv raisi v.v.b.**



**Y. Korjikov**